Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AXLOQ VA INSONPARVARLIK G‘OYALARI

Samatov Xurshid Ulmasjonovich
Samarqand davlat
pedagogika instituti o‘qituvchisi
Aktamova Surayyo Dilshodovna
SamDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23883979

Annotatsiya. Maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy asarlaridagi axloqiy qarashlar va insonparvarlik g‘oyalarining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” va lirik meros misolida komil inson, adolat, mehnat, ilm, do‘stlik va xalq g‘amxo‘rligi tushunchalari yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tahliliy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Natijalar Navoiy ijodidagi insonparvarlik g‘oyalari bugungi ma’naviy-axloqiy tarbiyada ham dolzarb ekanini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, axloq, insonparvarlik, komil inson, adolat, “Xamsa”, tasavvuf, ma’naviyat.

Аннотация. В статье анализируются этические взгляды и гуманистические идеи в произведениях Алишера Навои. На примере «Хамсы», «Махбуб ул-кулуб», «Лисан ут-тайр» и лирического наследия раскрываются понятия совершенного человека, справедливости, труда, знания и дружбы. Показано, что гуманистические идеи поэта сохраняют актуальность для современного духовно-нравственного воспитания.
Ключевые слова: Алишер Навои, этика, гуманизм, совершенный человек, справедливость, «Хамса».

Abstract. The article examines the ethical views and humanistic ideas in the works of Alisher Navoi. Drawing on the Khamsa, Mahbub ul-qulub, Lison ut-tayr and his lyrical heritage, it explores the concepts of the perfect human being, justice, labour, knowledge and friendship. The findings show that Navoi’s humanistic ideas remain relevant to modern spiritual and moral education.
Keywords: Alisher Navoi, ethics, humanism, perfect human, justice, Khamsa, Sufism.

KIRISH

Mustaqillik yillarida ma’naviy merosni o‘rganish yoki globalashuv davrida ma’naviy merosni asrash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.Alisher Navoiy (1441–1501) jahon madaniyati tarixida o‘zbek adabiy tilining asoschisi, buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida chuqur iz qoldirgan siymodir. Uning ijodiy merosi turkiy xalqlar ma’naviyatining poydevori bo‘lib, asrlar davomida inson, uning kamolot yo‘li va jamiyatdagi o‘rni haqidagi savollarga javob izlab kelmoqda. Navoiy asarlarining markaziy mavzusi aynan inson bo‘lib, shoir uni olamning eng oliy mohiyati, ezgulik va go‘zallikning timsoli sifatida ulug‘laydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Navoiy asarlaridagi axloqiy me'yorlar – halollik, adolat, kamtarlik, mehnatsevarlik, ilmga intilish va xalqqa xizmat qilish – shu jarayonda mustahkam ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – Alisher Navoiy asarlarida axloq va insonparvarlik g'oyalarining ifodalanish usullarini, ularning falsafiy asoslarini va zamonaviy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; Navoiy asarlarida komil inson konsepsiyasini aniqlash; adolat, mehnat, ilm va do'stlik tushunchalarining talqinini yoritish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Navoiy merosi o'nlab yillar davomida jahon sharqshunosligi va o'zbek adabiyotshunosligining asosiy tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib kelmoqda. E.E.Bertels shoirning hayoti va ijodini keng tarixiy kontekstda o'rgangan ilk yirik monografik tadqiqotlardan birini yaratgan [3]. A.Hayitmetov Navoiy lirikasi, uning ijodiy uslubi va badiiy mahoratini tahlil qilib, shoir she'riyatidagi inson tasvirining o'ziga xosligini ochib bergan [4]. N.Komilov esa tasavvuf ta'limoti va komil inson axloqi masalalarini yoritib, Navoiy qarashlarining diniy-falsafiy ildizlarini ko'rsatib bergan [5].

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga bag'ishlangan umumiy tadqiqotlarda Navoiy ijodi XV asr Temuriylar davri madaniy muhitining cho'qqisi sifatida talqin etiladi [6]. Shuningdek, shoirning zamondoshlari tomonidan yozilgan xotira va ma'lumotlar uning insoniy fazilatlarini, xayrli ishlarini hujjatli asosda o'rganish imkonini beradi [7]. Mustaqillik yillarida Navoiy merosiga ma'naviy tarbiya nuqtayi nazaridan yondashuv kuchaydi, ayniqsa uning ijodi yuksak ma'naviyatning bebaho manbai sifatida baholandi [8].

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy, matniy-tahliliy, tizimli va germenevtik usullarga asoslanadi. Birlamchi manba sifatida Navoiyning "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois", "Vaqfiya" asarlari va g'azallari tanlandi [1; 2].

ASOSIY QISM

1. Axloq – Navoiy dunyoqarashining asosi

Navoiy uchun axloq jamiyat va shaxs kamolotining asosiy mezoni hisoblanadi. Shoir inson qadri uning mansabi, boyligi yoki nasab-nasabida emas, balki amali, xulqi va xalqqa naf keltirishida ekanini ta'kidlaydi. Bu g'oya "Hayrat ul-abror" dostonida yorqin aks etgan. Shoir insonning haqiqiy qiymatini xalq dardiga sherik bo'lishda ko'radi: "Odami ersang, demagil odami, oniki yo'q xalq g'amidin g'ami." Ushbu satrlarda insonparvarlikning mohiyati – o'zgalar g'amini o'z g'amidek his qilish ma'nosi ifodalangan.

"Hayrat ul-abror" axloqiy-ta'limiy doston sifatida shoh va fuqaro, olim va dehqon, ota va farzand, do'st va dushman o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy me'yorlarini belgilab beradi. Doston "Xamsa"ning birinchi kitobi bo'lib, butun turkum uchun g'oyaviy poydevor vazifasini o'taydi.

2. Komil inson konsepsiyasi

Navoiy ijodining markaziy falsafiy tushunchalaridan biri – komil inson g‘oyasidir. Bu g‘oya Sharq tasavvufida ildiz otgan bo‘lsa-da, Navoiy uni hayotiy, ijtimoiy mazmun bilan boyitadi. Shoir nazdida komil inson o‘z nafsini jilovlagan, ilm va ma’rifat egasi, adolatli, sofdil, xalqqa xizmat qiluvchi shaxsdir. Uning kamoloti faqat ibodat yoki uzlatda emas, balki jamiyat uchun foydali ishlar qilishda namoyon bo‘ladi.

“Lison ut-tayr” dostonida bu g‘oya ramziy shaklda ifodalangan: qushlar Simurg‘ni izlab, uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tadi, yo‘lda nafs va g‘ururni yengadi. Yetib borgan oz sonli qushlar Simurg‘da o‘z aksini ko‘radi. Bu timsol insonning o‘zlikni anglashi, o‘z ichki olamini kashf etishi lozimligini anglatadi. Navoiy talqinida kamolot yo‘li – ongli mehnat, sabr va mutassil ma’naviy takomil yo‘lidir.

3. Adolat va hukmdor mas’uliyati

Navoiy ijodida adolat jamiyat tinchligi va farovonligining kafolati sifatida talqin etiladi. “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazi orqali ideal hukmdor timsoli yaratilgan: u donishmand, adolatparvar, ilm ahlini qadrlovchi, xalq tashvishini o‘ylovchi shoh sifatida tasvirlanadi. Shoir zulm va zo‘ravonlikni qoralab, hokimiyatni xalq oldidagi mas’uliyat, deb biladi.

Navoiy bu g‘oyalarni nafaqat she’riyatda, balki amaliyotda ham ro‘yobga chiqargan. U davlat ishlarida yuksak lavozimlarda bo‘lib, ko‘plab ribotlar, madrasalar, shifoxonalar, ko‘priklar va suv inshootlari qurdirdi, olimlar va san’atkorlarga homiylik qildi. Shoirning “Vaqfiya” asari uning xayriya va ijtimoiy g‘amxo‘rlik faoliyatini hujjatli asosda tasdiqlaydi.

4. Mehnat, sadoqat va sevgi talqini

“Farhod va Shirin” dostoni mehnat, fidoyilik va sadoqat mavzusini yuksak badiiy darajada ifodalaydi. Farhod – og‘ir mehnat orqali maqsadga intiluvchi, sevgisi yo‘lida jonini ayamaydigan, ma’naviy jihatdan pok qahramon. Uning Beston tog‘ida ariq qazishi mehnatning ulug‘ligini, insoniy irodaning kuchini ramziy ifodalaydi. “Layli va Majnun” dostonida esa sof va tub muhabbat insonni ma’naviy poklikka eltuvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Navoiy lirikasida ham insonparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi. Uning g‘azallarida do‘stlik, vafo, kamtarlik va sadoqat inson qalbining eng go‘zal fazilatlari sifatida madh etiladi, riyokorlik, xudbinlik va ikkiyuzlamachilik esa qattiq tanqid qilinadi.

Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi ham insonparvarlik g‘oyalarining muhim manbasidir. Unda shoir yuzlab avliyo va ulug‘ zotlarning hayoti, ularning kamtarligi, sabr-toqati va xalqqa mehribonligi haqida hikoya qiladi. Asarda inson qadri uning dunyoviy shuhrati bilan emas, ma’naviy poklik va xulq go‘zalligi bilan o‘lchanishi ta’kidlanadi. Bu qarash Navoiyning butun ijodini bog‘lab turuvchi asosiy g‘oyalardan biridir.

5. Ilm-ma’rifat va til masalasi

Navoiy ilm va ma’rifatni inson kamolotining zaruriy sharti, deb hisoblagan. “Mahbub ul-qulub” asarida shoir jamiyatning turli tabaqalari – hukmdorlar, olimlar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar – xulq-atvori va ularning o‘zaro munosabati haqida fikr yuritib, har bir kasb egasi o‘z burchini halol bajarishi zarurligini ta’kidlaydi. Bu asar axloqiy-ijtimoiy qarashlarning ixcham va yaxlit ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Shoirning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari esa ona tilining qadr-qimmatini himoya qilgan, turkiy tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini ilmiy dalillar bilan asoslab bergan. Navoiy uchun ona tiliga hurmat – xalq qadriyatlariga hurmat, milliy o‘zlikni anglash va insoniy g‘ururning ifodasidir. “Majolis un-nafois” tazkirasida esa u ijodkorlarni qadrlash, ularga xolis baho berish namunasini ko‘rsatgan.

Navoiyning axloqiy qarashlarida do‘stlik va ustoz-shogird munosabatlari ham alohida o‘rin tutadi. Shoir ustozi Abdurahmon Jomiyga bo‘lgan hurmatini “Xamsatul-mutahayyirin” asarida yuksak ehtirom bilan ifodalagan. Bu holat shoirning ilm ahliga, ustozga va do‘stga sadoqatini, ma’naviy qadriyatlarni amalda qadrlaganini ko‘rsatadi. Navoiy fikricha, haqiqiy do‘stlik manfaatga emas, sidqidillik va o‘zaro hurmatga asoslanadi.

6. Navoiy g‘oyalarining zamonaviy ahamiyati

Navoiy asarlaridagi axloqiy g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Ularning ta’lim-tarbiya tizimida qo‘llanishi yoshlarda vatanparvarlik, mas’uliyat, mehr-oqibat, halollik va ilmga intilish kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shoirning inson qadrini, o‘zgalar dardiga sheriklikni, mehnat va adolatni ulug‘lovchi qarashlari umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lib, madaniyatlararo muloqot va tinchlik g‘oyalarini mustahkamlashga ham ko‘maklashadi.

Xususan, Navoiy g‘oyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash uchun quyidagi yo‘nalishlar samarali hisoblanadi: asarlarni matniy tahlil qilish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish; axloqiy hikoyatlar asosida muammoli vaziyatlarni muhokama qilish; shoirning hayotiy faoliyatini ijtimoiy mas’uliyat namunasi sifatida o‘rganish. Bu yondashuvlar Navoiy merosini nafaqat o‘tmish yodgorligi, balki bugungi kun uchun ham amaliy ma’naviy qo‘llanma sifatida qabul qilish imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy asarlarida axloq va insonparvarlik g‘oyalari yaxlit tizim sifatida shakllangan bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, inson qadri uning amali va xalqqa foydasi bilan o‘lchanadi; ikkinchidan, komil inson ilm, adolat, mehnat va nafsni jilovlash orqali kamolotga erishadi; uchinchidan, hukmdor mas’uliyati va ijtimoiy adolat jamiyat taraqqiyotining zaruriy sharti sanaladi; to‘rtinchidan, ona tili, ilm-ma’rifat va ijodkorlarga hurmat milliy ma’naviyatning asosi sifatida talqin qilinadi.

Navoiy merosini chuqur o‘rganish va uning g‘oyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga izchil joriy etish yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami: 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2003.
2. Navoiy A. Asarlar: 15 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1963–1968.
3. Бертельс Е.Э. Навои: Опыт творческой биографии. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948. – 400 с.
4. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961.
5. Komilov N. Tasavvuf, yoki Komil inson axloqi. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
6. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sharq, 2006.
7. Navoiy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
10. Subtelny M.E. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden: Brill, 2007.